

HOZIRGI DAVRDA NOOSFERA G'OYALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Tangirov Nizom Abduraxmonovich

**O'zbekiston Milliy universiteti Etika va estetika kafedrası dotsenti,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

Email: nizom3686@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi davrda noosfera g'oyalarining o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi. Shu o'rinda noosfera to'g'risidagi ta'limotlarning shakllanishiga ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy shart-sharoitlar, albatta o'zining muhim ta'sirini o'tkazganligi, ushbu konsepsiyalarning vujudga kelishida o'sha davr dunyoqarashi va tabiiy-ilmiy fanlar rivoji ham alohida o'rin tutganligini hisobga olishimiz lozim. Mazkur masalalar doirasidagi konseptual yondashuvlarni tizimli ravishda tadqiq qilish lozim.

Kalit so'zlar: noosfera, biosfera, sivilizatsiya, ong, aql, fan, inson, tabiat, ekologik muammolar.

ХАРАКТЕРИСТИКА НООСФЕРНЫХ ИДЕЙ В СОВРЕМЕННЫЙ ПЕРИОД

Тангиров Низом Абдурахмонович

**Доцент кафедры Этики и эстетики, доктор философских наук (PhD)
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека**

Email: nizom3686@gmail.com

Аннотация: В данной статье говорится об особенностях представлений о ноосфере в настоящее время. Здесь следует учитывать, что общественно-политические и экономические условия оказали важное влияние на формирование учений о ноосфере, что мировоззрение того времени и развитие естественных наук сыграли особую роль в создании эти понятия. Концептуальные подходы в рамках этих вопросов должны подвергаться систематическому исследованию.

Ключевые слова: ноосфера, биосфера, цивилизация, сознание, разум, наука, человек, природа, экологические проблемы.

CHARACTERISTICS OF NOOSPHERIC IDEAS IN THE MODERN PERIOD

Archabayeva Nargiza Nasimovna

**Associate Professor, Department of Ethics and Aesthetics, Doctor of
Philosophy (PhD) of the National University of Uzbekistan**

Email: nizom3686@gmail.com

Annotation: This article talks about the peculiarities of ideas about the noosphere at the present time. Here it should be taken into account that socio-political and economic conditions had an important influence on the formation of doctrines about the noosphere, that the worldview of that time and the development of natural sciences played a special role in the creation of these

concepts. Conceptual approaches within these issues need to be systematically explored.

Key words: noosphere, biosphere, civilization, consciousness, mind, science, man, nature, environmental problems.

Kirish.

Noosferaning tarixiy genezesi avvalo, insonning stixiyali ong faoliyatida aql va ratsionallashuv ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Bunda aql va ratsionallashuv masalasi falsafa va fan tarixida qadimdan dolzarb muammo bo‘lib kelgan. Har bir falsafiy maktab o‘z ta‘limotidan kelib chiqqan holda aql va ratsionallashuv muammosiga turli nuqtai nazardan yondashadi. Professor Nataliya Bobroning fikricha, ilm-fan uchun nisbatan yangi hodisa bo‘lgan noosfera g‘oyasi bizga insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishi va uning tabiat va texnologiya bilan o‘zaro ta‘siri bo‘yicha noyob istiqbolni taklif etadi. Noosfera g‘oyasi XX asr boshlarida, ukrainalik olim Vernadskiy uni biosferaning yangi holati deb ta‘riflaganida paydo bo‘lgan, unda inson aqliy faoliyati rivojlanishni belgilovchi omilga aylanadi.[1]

Inson tafakkuri o‘z ijtimoiy borlig‘i, makonida biosferadagi yana bir ulkan geologik hodisa sifatida Aql sohasi – Noosferani namoyon qildi. Olimning fikricha, bu aqliy faoliyat Yerdagi "yangi qobiq" - noosferaning paydo bo‘lishiga olib keladi, bu nafaqat jismoniy, balki bizning turimizning ruhiy jarayonlarini ham aks ettiradi.

Shu ma‘noda, Noosfera to‘g‘risidagi ta‘limotlarning shakllanishiga ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy shart-sharoitlar, albatta o‘zining muhim ta‘sirini o‘tkazgan. Buni biz tan olgan holda, ushbu konsepsiyalarning vujudga kelishida o‘sha davr dunyoqarashi va tabiiy-ilmiy fanlar rivoji ham alohida o‘rin tutganligini hisobga olishimiz va mazkur masalalar doirasidagi konseptual yondashuvlarni tizimli ravishda tadqiq qilish lozim.

Adabiyotlar tahlili. Avvalo, noosfera inson bilishining mahsuli, ong taraqqiyotining kosmik darajasi.[2] Bunda noosfera insonning o‘z tafakkuri va amaliyotini qamrab oladi. Aql va uning geologik xarakterini E.Lerua va L.Teyyar de Shardenlar yaxlit kompels holda o‘rganib, buni “Noosfera” (Aql-idrok sferasi) deb atashdi. Yer kurasidagi biosferani antropogen ta‘sirida o‘zgartirish darajasi – Noosferani namoyon qiladi. Per Teyyar de Sharden fikricha, dastlab Tafakkur fazosi yer hayotida kuchni keltirib chiqargan holda bunda uning o‘z qobiliyatini tanqid qilish va ularga baho berishi[3]ga to‘xtalib o‘tgan. Bu esa, bizdan global doiradagi muammolarni hal etishdagi munosib fikrlashni, dunyoga bir butun birlik sifatida yondashishni talab etadi.[4] O‘z navbatida aql “inson tabiati”dagi nuqsonlarni bartaraf etib, uning tabiatda tur sifatida saqlanib qolishini ta‘minladi. Buni sodda mehnat qurollarini kashf etish orqali amaliy tajribasi boyib borishida ko‘rishimiz mumkin. Inson aqliy intellektining obe‘ktiv olamni bilish funksiyasi fan qonunlari, kategoriyalar tizimini kengayishiga olib keldi. Aqlning ilmiy ratsional rivoji fan-texnikaning imkoniyatlarini oshirdi va yangicha madaniy sivilizatsiyaviy hayotni barpo qildi.

1974 yilda yapon olimi Norio Taniguchi alohida atomlarni boshqarib, yangi ob‘ekt va materiallar tuzish jarayonini izohlash uchun birinchi bo‘lib nanotexnologiya tushunchasidan foydalandi. Ushbu sohada ilk texnik vositalar

Shvetsariyaning IBM laboratoriyalarida ixtiro qilingan, ya'ni skaynerlovchi zondli mikroskop (1982 yil) hamda atom-kuch mikroskopi (1986 yil) yaratildi. Bu uskunalar nafaqat nanodunyoni tamosha qilishga, balki yangi nanoob'ektlarni qurishga ham imkon bermoqda.[5]

Insonning tabiiy muhitga ta'siri qadimgi davrlarda o'ta kuchsiz bo'lgan. Davrlar o'tishi bilan inson qo'lida qudratli kuch va quvvat manbalari to'plangach, uning tabiatga ta'siri sezilarli darajada o'zgara boshladi. Inson atrof-muhitni ifloslantirib, biosferadagi tabiiy muvozanatni izdan chiqara boshladi. Noosfera konsepsiyasi o'z ichiga bugungi kun sivilizatsiyasi va global tabiiy jarayonlarning o'zaro munosabati tizimidagi muammolarni o'z ichiga qamrab oladi. Bu masalaning yechilishi bevosita insonning aql-idrok kuchi bilan bog'langandir. Inson o'zligini anglamas ekan, uning sayyoramizga halokatli ta'siri kuchaygandan kuchayib, oxir-oqibatda uning o'zini ham halokatga olib borishi mumkin, degan ilmiy bashoratlar bor. Haqiqatan ham inson faoliyati aql-idrok bilan oqilona boshqarilmas ekan, u Yer yuzining halokatini tezlashtirishi muqarrar.

Noosfera konsepsiyasining chuqur tarixiy-falsafiy asoslarida olamni ilmiy manzarasini o'zgartirishga qodir bo'lgan bilim va aql-idrok kuchiga bo'lgan optimistik ishonch mavjud. Lekin, Rus olim V.Sokolov insonning bemisl darajada Aqllashuvini shubha ostiga oladi. Bunga nisbatan yondashuvda Aql va Aql madaniyati o'rtasidagi tafovutni anglash insoniyat uchun zaruriyat ekanligiga to'xtalib o'tgan edi.

Hozirgi davrda aqlning roliga dialektik yondashsak, bu avvalo ratsional aql, tafakur taraqqiyoti Homo sapiens – "ongli odam" nomini olgan kramonon tipda o'zining geologik kuchini ko'rsatdi. XX asrning boshlarida taniqli rus olimi, akademik V.I.Vernadskiy insonning xo'jalik faoliyatini tabiiy o'zgarishlarni yaratuvchi kuchlarga taqqoslagan edi.[6]

Vernadskiy jamiyatga jonli va jonsiz tabiatning birligi sifatida yondashgan holda unda insonning faol sub'ekt sifatida hukmronlik qilishini asoslaydi. Bunda jamiyat va tabiat o'zaro bog'lanishidagi insonning faoliyati ta'sirida yuz bergan sifat o'zgarishlarini ilmiy asoslashga harakat qildi. Jamiyat va tabiatning o'zaro bog'lanishida insonning oqilona faoliyati eng muhim omilga aylanadigan bosqichga erishishni u «noosfera» (yunon. noos – aql, idrok va sphaira – soha), ya'ni aql-idrok sohasi deb nomladi. Shundan beri noosfera insonning har qanday o'zgartiruvchi faoliyati tabiiy va ijtimoiy jarayonlarni ilmiy tushunishga asoslanadigan va tabiat rivojlanishining umumiy qonunlari bilan muvofiqlashtiriladigan materiya mavjudligi barcha shakllari birlashuvining oliy bosqichi sifatida tushuniladi.

Boshqacha aytganda, bu «jamiyat-tabiat» sistemasi tadrijiy rivojlanishining oliy bosqichi, hali mavjud bo'lmagan, lekin shakllana boshlagan va agar insoniyat bo'hronlar yuz berishini xohlamasa va kelajakda munosib hayot kechirishni istasa, albatta mavjud bo'lishi kerak bo'lgan bosqichdir. Rus olimi M.Karpenko esa insonning tabiatni bo'ysundirishi uchun aslida "ko'p aql shart ham emas edi, axir kamdan-kam kishi, u ham bo'lsa faqat ahyonda qattiq zo'riqib fikrlaganida o'z miyasining atigi 3-5% dan kattaroq qismini ishlatadi"[7], deb aytilgan fikrda inson miya faoliyatining cheksiz imkoniyatlari borligini ham asoslab o'tadi. Shunday

ekan, inson intellekti va uning ilmiy ratsionallashuvida noosfera – o‘ziga xos fenomen sifatida namoyon bo‘ladi. Unda jonsiz va jonli tabiatning o‘zaro ta‘sirini aks ettiruvchi qonuniyatlar, shuningdek jamiyat, inson faoliyati va tafakkur qonunlari amal qiladi. V.Vernadskiy fikriga ko‘ra, noosferaning shakllanishi o‘zida borayotgan ilmiy tafakkur va unga asoslangan unumli ijtimoiy mehnat ta‘sirida yuz berishi lozim. Ilmiy intellektning o‘zishi insoniyatning mavjudlik shart-sharoitlariga jiddiy ta‘sir ko‘rsatmay qolmaydi. V.Vernadskiy bu jarayon miqyosini yanada kengaytiradi, chunki noosfera moddiy tizimning ulkan umumbashariy jarayonni qamrab oluvchi turidir. Noosfera insoniyat hayotining oliy tashkiliy vazifalarini hal qilishni ham, tabiiy-kosmik tartibni oqilona tartibga solish mumkinligi g‘oyasini ham nazarda tutadi.[8] Bugungi kunda ilm-fan taraqqiyoti, falsafiy fikrlash madaniyatini rivojlantirish zarurati inson bilimlarni yanada kengaytirish va mustahkamlashni, tevarak olamda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarni atroflicha o‘rganishni, shu asosda insoniyat kelajagi haqida ilmiy bilimlarni shakllanishida noosferani ilmiy-falsafiy jihatdan o‘rganish, uni olamni bilishdagi o‘rnini nazariy jihatdan asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ilmiy potensial ilmiy bilimlarning to‘planib borishi va olamning ichki ilmiy qonunlarining ochilib borishi o‘z navbatida noosferani xavf ostiga qoldiradi. Noosferaning prognoztik jihatida tabiatning xavf ostida qolganligi va inson amaliyotda o‘zini anglamasa, tabiat bilan o‘zini ham xavf ostiga qoldirishi aytilmoqda. Hozirgi ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda taraqqiyotning xavfli tus olganligi haqidagi yondashuvlar ilgari surilib, unda insoniyatning o‘zi bunda bosh sababchi ekanligiga to‘xtaniladi. Bu vaqt davomida ekologik noosferaviy harakat guruhlari faoliyat boshlab, mustahkam g‘oyaviy o‘rniga ega bo‘ldi. Bu o‘rinda olimlar va faylasuflarning bosh vazifasi, avvalo, bu muammolar ustida fikrlashda axloqiy pozitsiyasi aqliy bilan uyg‘unlashuvni taqozo qiladi.

Hozirgi zamondagi ekologik muammolardan biri ham inson faoliyati tomonidan atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va bu halokatni to‘xtatib qolishdan iborat. Bu olamni qay darajada yaxshi bilib olishimiz va uning hayotiga nisbatan mas‘uliyatni anglashimizga bog‘liqdir. Inson jamiyatda va tabiatda tutgan o‘z o‘rnini to‘g‘ri anglasa, atrof muhitni ham avaylab-asraydi, Yer yuzini yanada gullatib yashnatadi.

Olamning vujudga kelishi va rivojlanishi uning turli bosqich, ko‘rinishlarini shakllantirdi. Bunda olamning mexanik, fizik va evolyusion bosqichi bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalarni o‘zida ifodalaydi. Masalan, evolyusion bosqich: hayot, noosfera, sinergetika va kosmogenez deb atalgan jarayonlarni qamrab oladi[9].

Nanotexnologiyaning asosiy jihatlaridan biri – yuqori texnologiyaning maxsus avlodi tashkil qiladiki, unda texnologiya nafaqat amaliy faoliyat, balki material ob‘ektini yaratish, tabiatga munosabati, ijtimoiy texnologiyani amaliyotga qo‘llash mumkin bo‘lgan jabhalardir. Nanotexnologiyalarning boshqa texnologiyalardan farqli tomonlari shundaki, u olamning tugamaydigan resurslaridan foydalanish va atom-molekula darajasining rivojlanishiga ko‘maklashadi.[10]

Fan tarixi muayyan davr talablari va ehtiyojlari asosida ilmiy tushunchalar, g'oyalar va nazariyalar rivojlanib borishi bilan bog'liq bo'lgan ob'ektiv jarayon. Jumladan, tabiiy va ijtimoiy fanlar tizimida Noosfera va unga oid qarashlar nazariy-konseptual ahamiyatga ega. Noosfera tushunchasini anglash bevosita olamning ilmiy manzarasini falsafiy-metodlar yordamida tushunish va o'rganish bilan bog'liq.

Tahlil va natijalar:

Olamning ilmiy manzarasini yaxlit, ob'ektiv, tabiiy jarayon sifatida bilish asosida inson ongining yuksak potensial imkoniyati namoyon bo'ladi. Mazkur ob'ektiv qonuniy rivojlanishda yuksak aql sohasi bo'lgan – Noosfera shakllandi.

Noosferani ob'ekt sifatida tushunish, avvalo, unga nisbatan yondashuvlarni klassifikatsiyalashda yaxlit namoyon bo'ladi. Noosferologiya - bu kosmos, hayot va ong yevolyusiyasini ongli hayot evolyusiyasi nuqtai nazaridan ko'rib chiqadigan ilmiy va falsafiy fanlarning sintetik majmuasidir[11]. Energiya va noosferologiya birlashuvida yangi murakkab ilmiy va falsafiy intizom - kosmos, sayyora, insoniyat evolyusiyasini ong evolyusiyasi deb hisoblaydigan, ammo energiya va energiya-axborot pozitsiyalaridan, shu jumladan energiya birlashuvida butun spektridan - sub'ektiv va ob'ektiv ravishda shakllanishi mumkin. Noosferaning ontologiyasi, uning dinamikasi ko'p jihatdan noosferani tashkil qilish orqali aniqlanadi (biosferani tashkil qilish bilan o'xshashligi - V.I. Vernadskiy atamasi). Noosferani vujudga kelishi bevosita inson miyasining tabiiy rivojlanishi bilan bog'liq. Homo sapiens miya faoliyati natijasi sifatida unda xotira, rivojlangan nutq va mehnat bilan bog'liq faoliyat jarayonida ijtimoiylashib bordi.

Inson va insoniyat jamiyati yuzaga kelishi va rivojlanishi bilan biosfera qonuniyatli suratda Noosferaga o'tadi, chunki, insoniyat tabiat qonunlarini egallab va texnikani rivojlantirib, tabiatni o'z ehtiyojlariga muvofiq ravishda tobora ko'proq o'zlashtirib boradi. Noosfera insonning kosmosga chiqishi va planetaning bag'riga kirib borishi hisobiga uzluksiz kengayishga moyilligi ilk fan kurtaklarining paydo bo'lishi va faoliyat sohasi sifatida ajralib chiqishi va fanning texnikaga tadbiiq etilishi bilan bog'liq. Shu o'rinda N.N.Moiseev "Noosfera tushunchasida tabiat taraqqiyoti mantiqini, Yerning ustki qobig'ida uning kelajagini ko'rish mumkin"[12].

Noosfera rivojlanishi endilikda ijtimoiy tizimdan tabiiy tizimga ko'chadi va bunda noosferaning tabiiy ekosistemalarni ta'minlanishda koevolyusiya nazariyasi ilgari surilmoqda. Hozirda progressiv rivojlanish falsafasi barqarorlik uyg'unlik falsafasiga o'tmoqda. Insoniyat o'z aql-zakovati bilan turli darajadagi tizimlarni muvozanatga keltirish, tabiat va jamiyatni uyg'unlashtirish yo'llarini izlaydi. Butun biosferani yoki uning ayrim tarkibiy qismlarini uyg'unlashtirish (bunda ichki, tabiiy uyg'unlik nazarda tutiladi) va tabiiy omillar va texnikaviy omillar muvozonatini saqlash nazarda tutilmoqda. Bioevolyusiya bilan texnoevolyusiya tezligi o'rtasidagi farq katta (taxminan 30 baravar) bo'lganida tabiat va jamiyatning koevolyusiyasi to'g'risida gap yuritish noo'rin.[13]

Noosferani holat sifatida talqin qilishda unga nisbatan dinamik va statik jihatlar namoyon bo'ladi. Bunda Noosferaning dinamik holati jamiyat ijtimoiy taraqqiyoti yo'nalishini aniqlashga yordam beradi. Noosferaning statik holatida

kosmos-tabiati-jamiat tizimidagi o'zaro zaruriy va ehtimoliy jarayonlar namoyon bo'ladi.

Noosferani natija sifatida tushunishda uning jamiyat hayotidagi ijobiy (konstruktiv) va salbiy (desktruktiv) holat va imkoniyatlarini aytish mumkin. Bu esa noosfera taraqqiyotiga nisbatan optimistik, pessimistik, alarmistik yondashuvlar ham vujudga kelishiga olib keldi. Shu jumladan, "Radikal negativizm" oqimi tarafdorlari fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga salbiy baho berishadi. "Radikal pozitivizm" oqimi esa biosferani texnosferaga aylantirish, yangi sun'iy muhit yaratish yaratish tarafdoridir. "O'rtacha koevolyusiya" deb ataluvchi uchinchi oqim tarafdorlari inson, tabiat va jamiyatning o'zaro uyg'un, optimal munosabatiga asoslanadi.[14] Demak, Noosfera tabiiy taraqqiyotning ham ob'ektiv, ham sub'ektiv imkoniyati va natijasi sifatida vujudga keldi. Endilikda falsafa va fanlar tizimida Noosfera g'oyasi va konsepsiyasini tushuntirishda mana shu tizimli yondashuvlardan o'rinli foydalanish, uni utopik-hayoliylikdan ko'ra, aniq va adekvat mohiyatini tushunishimizga yordam beradi.

Noosfera konsepsiyasining ob'ektiv va sub'ektiv ontologiyasini quyidagicha tahlil qilish mumkin: Falsafa fanlari doktori I.Hoshimova fikricha, jamiyat esa tabiatga antropogen ta'sir etadi. Bu jamiyat tomonidan tabiatni o'zgartirish, global ob'ektlarni o'zlashtirish, ya'ni, insonning tabiatni qayta o'zlashtirishdagi kompleks muammolarini o'z ichiga oladi. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida jamiyat va tabiat munosabatlari tobora chuqurlashib, murakkablashib borgan sari tabiatga ta'sir ortib boradi. Jamiyat o'z ta'siri bilan tabiatni o'zgartiradi, bu jarayon moddiy ishlab chiqarish, qayta ishlab chiqarish orqali, ya'ni, tabiiy resurslardan foydalanish, tabiiy boyliklarni ko'paytirish, ifloslantirish va uni muhofaza qilish jarayonida sodir bo'ladi. Jamiyat taraqqiyoti uning tabiat bilan o'zaro munosabatining kengayishi orqaligina sodir bo'ladi[15].

Futurolog olim E.To'ffler fikricha, "Tor mutaxassislikka qarshi da'vat tabiatning yagonaligi, turlarning o'zaro bog'liqligi, ekotizimning umumiyligini kashf etgan. Ekologlar va 70- yillarda boshlangan atrof-muhitni himoya qiluvchilar tomonidan qo'llab quvvatlandi. Ekologiya va tizimli yondashuv qisman mos keldi va ular hamkorlikda bilimlar sintezi va integratsiyasiga yo'l ochib berdilar"[16].

M.Abdullaeva fikricha, Sinergetika va nanotexnologiyalar asosini tashkil qiluvchi umumiy tomonlari ularning ikkalasi ham ochiq tizimlilik, mikrodunyodan makrodunyoga o'tish jarayoni o'z-o'zini tashkillashtiruvchi tamoyillar asosida bo'lishi, tadqiqotlar esa fanlararo yondashuvga asoslanganidir[17]. Jamiyat ilmiy potentsiali kuchayishida bilimlar to'planib borishi va olam qonunlarining kashf qilinishi, o'z navbatida, noosferani xavf ostiga qoldiradi.

Darhaqiqat, noosfera rivojlanishi haqidagi bashoratlarda tabiatning xavf ostida qolganligi, agar inson amalda o'zini anglamasa, tabiat bilan birgalikda xavf ostida qolishi aytilmoqda. Shuning uchun hozirgi ekologiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlarda zamonaviy sivilizatsiyalar taraqqiyoti xavfli tus olganligi haqidagi ta'limotlar ilgari surilib, unda insoniyatning o'zi bosh sababchi ekanligi, unga qarshi jahon hamjamiyati birgalikda kurashi zarurligi ko'rsatilgan. Umuman, ekologik noosferaviy harakat guruhlar faoliyatining mustahkam g'oyaviy-

mafkuraviy mavqega ega bo'lishida, ularning ma'naviy-axloqiy pozitsiyasi bilan aqliy intellektual salohiyati uyg'unlashuvi asosiy rol o'ynamoqda.

Xulosalar.

Zamonaviy dunyoda noosfera tushunchasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Biz texnologiyalar, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari nafaqat qurol, balki madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotning muhim tarkibiy qismlariga aylanib borayotganining guvohi bo'lamiz. Internet, sun'iy intellekt va innovatsion texnologiyalar texnologiya zamonaviy noosferani qanday shakllantirayotganiga bir nechta misoldir. Bir tomondan, bu muloqot, o'rganish va innovatsiyalar uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Boshqa tomondan, bu o'sib borayotgan raqamli tafovut, ma'lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligiga tahdidlar va texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq axloqiy muammolar bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi.

Kelajakda noosfera cheksiz rivojlanish va taraqqiyot manbai bo'lishi mumkin, jumladan biotexnologiya, sun'iy intellekt va miyaga asoslangan interfeyslarni rivojlantirish, bu bizning muloqot qilish, qaror qabul qilish va rivojlanish usullarini o'zgartiradi. Biroq, biz ushbu texnologiyalar bilan bog'liq potentsial xavf va qiyinchiliklarni yodda tutishimiz kerak.

Demak, Noosfera tabiiy taraqqiyotning ham ob'ektiv, ham sub'ektiv imkoniyati va natijasi sifatida vujudga keldi. Endilikda falsafa va fanlar tizimida Noosfera g'oyasi va konsepsiyasini tushuntirishda mana shu tizimli yondashuvlardan o'rinli foydalanish, uni utopik-hayoliylikdan ko'ra, aniq va adekvat mohiyatini tushunishimizga yordam beradi. Hozirgi zamondagi ekologik muammolar, inson tomonidan tabiiy atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va halokatini to'xtatib qolishdan iborat. Bu insonning olamni qay darajada bilishiga va o'z hayotini saqlab qolish mas'uliyatini anglashiga bog'liqdir. Zero, inson tabiatda va jamiyatda tutgan o'z o'rnini to'g'ri anglasa, o'zini ham, atrof-muhitni ham, avaylab-asraydi, Yer yuzini yanada gullatib yashnatadi.

Adabiyotlar:

1. [Bobro](https://www.noolab.ch/blog/noosphere-past-present-and-future) Natalia. Noosphere: past, present and future // <https://www.noolab.ch/blog/noosphere-past-present-and-future>
2. Қаранг: Философия: учебник. – М.: Русское слово, 1998. - С. 275.
3. Шарден П. Феномен человека. М., 1987.
4. Қаранг: Синергетическая парадигма. –М.: Прогресс-Традиция, 2000. –С. 536.
5. Гаффарова Г.Ғ. Нанотехнологиянинг ўзига хос хусусиятлари //Фалсафа ва фанлар методологияси муаммолари: (тўплам) ЎзР ФА И.М.Мўминов номидаги Фалсафа ва ҳуқуқ институти; таҳририят: Р.Ж.Рўзиев, М.Н.Абдуллаева ва бошқалар. 1- китоб. –Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2011. -Б. 67.
6. Тўраев В.А. Инсониятга глобаллашув таҳдидлари // Жаҳон адабиёти журнали, 2003 йил, №3, 34- бет.
7. Карпенко М. Вселенная разумная. – Москва, 1992. - Б. 11.
8. Қаранг: Философия: учебник. – М.: Русское слово, 1998. - С. 275.

9. Қаранг: Баранцев Р.Г. Синергетика в современном естествознании. – М.: Едиториал УРСС, 2003, - С. 16.

10. Гаффарова Г.Г. Нанотехнологиянинг ўзига хос хусусиятлари //Фалсафа ва фанлар методологияси муаммолари: (тўплам) ЎзР ФА И.М.Мўминов номидаги Фалсафа ва ҳуқуқ институти; таҳририят: Р.Ж.Рўзиев, М.Н.Абдуллаева ва бошқалар. 1- китоб. –Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2011. -Б. 68.

11. Жульков М.В. Ноосферный энергетизм: фундаментальная онтология // Философская мысль. 2017. № 9. – С. 23 - 45. DOI: 10.25136/2409-8728.2017.9.24066 URL: https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=24066

12. Моисеев Н.Н. Человек и ноосфера. – Москва, Молодая гвардия, 1990. -С. 11.

13. Ҳошимова И.С. Экологияга оид ғоялар тизими // Ғоялар фалсафасининг назарий-методологик асослари. (Ўқув қўлланма) / М.Н.Абдуллаева, Н.О.Сафарова, И.С. Ҳошимова ва бошқалар. – Т.: ЎзМУ, 2013. –Б. 48.

14. Ҳошимова И.С. Экологияга оид ғоялар тизими // Ғоялар фалсафасининг назарий-методологик асослари. (Ўқув қўлланма) / М.Н.Абдуллаева, Н.О.Сафарова, И.С. Ҳошимова ва бошқалар. – Т.: ЎзМУ, 2013, -Б. 48.

15. Хошимова И.С. Экология фалсафаси асослари // Фалсафа ва фанлар методологияси муаммолари: Республика илмий-назарий семинар материаллари. –Т., “MUMTOZ SO‘Z”, 2016. -Б. 27.

16. Тоффлер Э. Третья волна. –М., АСС, 2002. –С. 484.

17. Абдуллаева М.Н. Синергетик жараёнлар ва нанофан // Инновацион технологиялар илм-фан ва ижтимоий тараққиёт: Республика илмий-амалий семинар материаллари. –Бухоро, 2010. –Б. 141.

18. G‘affarova, G.G. (2024). Kreativlik falsafasi. NamDU ilmiy xabarleri. 6-son, 280-283 b

19. Гаффарова, Г. (2023). Молодежного сознания в цифровом обществе. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(2), 13-17

20. Gulamzhanovna, G.G. (2024). The Need for Creativity in the Development of Human Capital. Miasto Przyszłości, 52, 685–690.

21. G‘affarova, G.G‘. (2024) METAETIKA PARADIGMASI. Globallashuv davrida fan, taʼlim va ishlab chiqarishning oʻzaro hamkorligi masalalari. 2-son, 737-741.

22. G.G. G‘affarova, U.I. Muzaffarov (2024). Yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish: mohiyati va muammolar. NamDU ilmiy xabarleri, 6-son, 294-298.